



**“OLYIY TA’LIM MAZMUNIGA  
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”  
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman  
MATERIALLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIK TA'LIM FAKULTETI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**“OLY TA'LIM MAZMUNIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”  
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman**

**MATERIALLARI**

**2023 yil 27 may**

**BUXORO-2023**

5.Бодрова М. С., Селезнёва С. А. Физика человека, 2016, 115 с.

6.Сергеев Б. А. Занимательная физиология – М.: Просвещение, 1977. – 304 с.

## **MAKTABGACHA TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MAZMUNI**

**Raximova N.A.**

### **BuxDU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi**

Sog'lom genafondni, yetuk kadrlarni tarbiyalash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, fiziologik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish bo'yicha ta'lim dasturlari joriy etilmagan. Umuman olganda, bog'chalar ota-ona ishda bo'lgan vaqtda qarab turadigan muassasaga aylanib qolgan.

Bularning barchasini inobatga olib, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bu jarayonda tarbiyaga alohida e'tibor berish va mas'uliyat bilan yondashishimiz shartdir. Maktabgacha ta'lim tizimiga oid qaror va farmonlar oliy ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvni talab etayotir. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan dars mashg'ulotlari sifati va samaradorligini baholashning zamon talabi darajasiga yetkazishni taqozo qiladi.

Zamonaviy ta'lim oldida turgan eng muhim vazifa yoshlarni ilm olishga bo'lgan qiziqishini, ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zi nima va u an'anaviy ta'lim texnologiyasidan nimasi bilan farq qiladi? YUNESKO buni quyidagicha ta'riflab bergan.

“Pedagogik texnologiya bu butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir”. Ushbu ta'rifda bu tushuncha “tizimli metod” ekanligi ayonlashadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrda AQSHda qo'llana boshlagan. Bunda “pedagogik texnologiya” va “ta'lim texnologiyasi” ifodalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llangan edi.

“Innovatsion-yangilik” so'zining qachon paydo bo'lganligi aniq bo'lmasada, bu tushuncha umumiy fanlarga tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqidagi fikrlar mavjud. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir.

Pedagogik texnologiyaning ta'lim jarayoniga tizimli yondashuvidan iborat ekanligidan kelib chiqib, u tarbiyachi oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- O'qitishning har bir bosqichida ta'lim mazmuni (o'quv rejasi, o'quv dasturi va ularning mantiqiy bog'liqligi)ni belgilash;

- Davlat talablarida berilgan indikatorlarning bolaning kuchiga mosligi va o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- Ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalari (o'quv qo'llanmalari, ta'limning texnik vositalarini tayyorlash);
- Mashg'ulot jarayonida motiv komponentini ro'yobga chiqarish maqsadida mashg'ulot mazmuniga qaratish uchun mavzuga mos qo'shimcha ravishda ma'lumot tayyorlash;
- Tarbiyachi kasbiy sifatlari va ma'naviy axloqiy fazilatlarini yanada shakllantirish;
- Ta'lim natijasi, o'zlashtirish darajasi sifati, bilim va ko'nikmalarni to'liq egallab olishlari;
- Mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari ishlar jarayonida beriladigan vazifalarni rejalashtirish, bolalar bilan yakka holda ishlashning mazmuni va tuzilishini ishlab chiqish;
- Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim asosida ishlarni tashkil etish.

Maktabgacha ta'limda mashg'ulotlarni tashkil etish va uni jahon talabi darajasida tashkil etish muhim sanaladi. Mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Mashg'ulotlar bolaning har tomonlama garmonik rivojlangan shaxs sifatida kamol topishida alohida rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar turli shakllarda o'tiladi. Tarbiyachi mashg'ulotning mavzusi asosida maqsadni aniq qo'yishi shart. Maqsadlar quyidagilarga bo'linadi: yangi ma'lumotni bilishga qaratilgan, tushunishga, amaliy tatbiqqa, tahlil va umumlashtirishga qaratilgan hamda shaxsning munosabatiga, ya'ni baholashga qaratilgan.

Ta'limiy maqsad – qanchalik aniq belgilansa va u mashg'ulotda olingan o'quv materialiga qanchalik muvofiq bo'lsa, mashg'ulotda ta'lim berish metodini tanlash shunchalik oson bo'ladi.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar qo'yiladi.

1. Mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarga yakka holda yoki guruhlarda topshiriqlar berish talab etiladi.

2. Tarbiyalanuvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda mavzudan kelib chiqib, metod tanlab olinadi.

3. Tarbiyachi o'tiladigan mavzuni mashg'ulot davomida bolalar tomonidan to'liq o'zlashtirib olinishini ta'minlaydi.

4. Mashg'ulotda sanitariya-gigiena talablariga rioya etiladi.

Bugungi kun maktabgacha ta'lim-tarbiya mazmuni yangilanib, rivojlanish bosqichiga ko'tarilmoqda. Aynan shu bosqichda maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimidagi mashg'ulotlar o'tkazilish metodlari ham xilma-xillikni talab etmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metod va usullar davlat talablarida ko'rsatilgan vazifalarni hal etishda muhim hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'zining ijobiy natijasini bermoqda.

Ayniqsa, xorijiy davlatlar tajribasiga asoslanib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va ulardan foydalainsh yaxshi samara beradi. Ayniqsa, ilk maktabgacha davridan boshlab to'g'ri berilgan ta'lim, kelajakda maktab ta'limiga tayyorlashda muhim turtki hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tuzilgan "Ilk kadam" davlat o'quv dasturi ham maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan dastur hisoblanadi. Ushbu dastur asosida har bir muassasa o'zining mavzuli mashg'ulotlar rejasini tuzib chiqishi lozim bo'ladi.

Davlat dasturi maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tarbiyachi bola rivojiga individual yondashuvni, uning shaxsini hurmat qilish, har bir bolaning manfaatlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g'amxo'rlik qilish, erkin ijodiy o'z-o'zini ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko'zda tutishi ta'kidlab o'tiladi. Bu o'z-o'zidan tarbiyachi tomonidan bola rivojlanishini kuzatib borishni muhim deb hisoblaydi. Bu borada pedagog bolani va uning o'zini tutish sabablarini yaxshirok tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko'rish, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish yo'llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini sistematik kuzatib borish talab etiladi. Bolaning individual rivojlanishini kuzatish uchun maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish lozim bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yosh xususiyatlari, ehtiyojlari, xohish va intilishlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhit mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar, milliy an'analar, bayramlar, tabiat iqlimidan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos kelishi talab etiladi. Bular barchasi bolaning maktabgacha ta'lim muassasasiga ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni

2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: "Nihol" nashriyoti 2016. – 279 b.

3. Zaripov K.Z. O'qituvchi faoliyati va shaxsini pedagogik tashxis asosida o'rganish. Xalq ta'limi 2002. 3-son, 83-87 b

4. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbiiq etishning tashkiliy asoslari / Xalq ta'limi, 1999 yil, 6-son, 4-9 b.

5. Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся // Молодой ученый. – 2014. – №. 8. – С. 852-854.

6. Очиллова М. О. ВЗГЛЯДЫ АГАХИ, АХМАДА ДОНИША И ФАЗЛИ НАМАНГАНИ НА ВОСПИТАНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ Вестник науки и образования. – 2021. – №. 3-2 (106). – С. 44-46.

7. Рахимова Н. А. РОЛЬ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА Вестник науки и образования. – 2021. – №. 3-2 (106). – С. 53-55.

8. Ochilova M. O., Rakhimova N. A. Forming Students' Creative Thinking // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – S. 37-41.

9. OCHILOVA M. O., RAKHIMOVA N. A., KURBANOVA X. I. ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ МОДУЛЯ РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В СЕМЬЕ" // Поколение будущего: взгляд молодых ученых-2021. – 2021. – С. 369-373.

## **ШАХМАТНИ О'RGATISHDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI**

**Toshev Murodjon Xalilovich**

**Buxoro davlat universiteti doktoranti**

Maktabda ta'lim sifatini oshirishda shaxmat fanining nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqishni jadallashtirish zarurati ko'zga tashlanmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishi bu ularning aql faoliyatining jarayoni va natijasi tushuniladi, bu esa o'z o'rnida mantiqiy fikrlash, aklliy harakatlarning shakllanganligi, o'zini o'zi boshqarish hamda olingan ma'lumotlarni o'zgartira olish va qo'llay olish qobiliyatining mavjudligini bildiradi.

<b>M.O.Ochilova, M.M. Abdullayeva</b> TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI INNOVATSIYALASH MASALALARI.....	48
<b>G'O.Boqiyev.</b> IXTISOSLIK FANLARINI MUAMMOLI O'QITISH ASOSIDA TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	51
<b>D.Haydarova.</b> PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA ASTRONOMIYADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI INNOVATSION O'QITISH.....	53
<b>G.I. Sayfullayeva, S.Q. Qaxxorov.</b> ASTRONOMIYA O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI.....	56
<b>N.X. Qobilova.</b> FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI TALABALAR KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	58
<b>Z.X. Qulboyev.</b> FIZIKANING "TEBRANISHLAR VA TO'LQINLAR" BO'LIMINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLAR.....	61
<b>N.A. Raximova.</b> MAKTABGACHA TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MAZMUNI.....	65
<b>M.X. Toshev.</b> SHAXMATNI O'RGATISHDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI.....	68
<b>Sh.A. Sharapova.</b> ТЕХНОЛОГИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ.....	72
<b>B.G. Nurullayev.</b> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASINING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA.....	75
<b>F.G.Nurullayev.</b> "O'ZBEK MUSIQASI TARIXI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	78
<b>3-ShO'BA. MILLIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK FAOLIYAT MAZMUNI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....</b>	<b>81</b>
<b>N.E. Azimova, A. Ergasheva.</b> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI.....	81
<b>A.T. Gulboyev.</b> OLIY TA'LIMDA PEDAGOGIK QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING INOVATSION YO'LLARI.....	86
<b>Sh.M.Farmonova.</b> O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH.....	90
<b>I.U. Ismatov, S.Q.Sadullayeva.</b> TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	95
<b>F.X.Ramazonova.</b> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBGA E'TIQODNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI.....	98
<b>Z.M. Amirqulova.</b> HIKOYALARDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZINING IFODALANISHI.....	102